

**MURAKKAB ATAMALARNI O'ZLASHTIRISH ORQALI NUTQ MADANIYATINI
OSHIRISH YO'LLARI**
**СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ ЧЕРЕЗ ОСВОЕНИЕ СЛОЖНЫХ
ТЕРМИНОВ**
**WAYS TO IMPROVE SPEECH CULTURE THROUGH MASTERING COMPLEX
TERMS**

Irodaxon Valijonovna Xoldarova

Farg'ona davlat universiteti Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), professor

Mubinaxon Shokirova Zokirjon qizi

Farg'ona davlat universiteti Pedagogika psixologiya va san'atshunoslik fakulteti

Boshlang'ich ta'lim 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17946767>

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirishda murakkab atamalarni o'zlashtirish jarayoni tahlil qilingan. Tadqiqot davomida o'quvchilarning murakkab so'zlarni yodlab olish bilan cheklanib qolayotganligi, ammo ularni og'zaki nutqda faol qo'llashda qiynalayotgani aniqlangan. Shu bois maqolada "Do'stingni top" va "So'z piramidasi" metodlari asosida ishlab chiqilgan innovatsion yondashuvlar taklif etiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, bu metodlar o'quvchilarda so'z boyligini kengaytirish, so'zning ma'nosini anglash, uni tahlil qilish va nutqda mustaqil qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, "andiz" so'zi misolida o'tkazilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning tafakkurini, mantiqiy fikrlashini va til bilan ishlash madaniyatini kuchaytirgan. Maqola natijalariga ko'ra, murakkab atamalarni o'zlashtirish jarayonini interfaol metodlar asosida tashkil etish o'quvchilarning nutq madaniyatini oshirishda samarali yo'l hisoblanadi.

Аннотация

В данной статье анализируется процесс усвоения сложных терминов в развитии речевой культуры учащихся начальной школы. В ходе исследования было выявлено, что учащиеся ограничены в запоминании сложных слов, но испытывают трудности в активном использовании их в устной речи. Поэтому в статье предлагаются инновационные подходы, разработанные на основе методик «Найди друга» и «Пирамида слова». Результаты исследования показывают, что данные методики развивают у учащихся навыки расширения словарного запаса, понимания значения слов, их анализа и самостоятельного использования в речи. В частности, упражнения, проведенные на примере слова «андыз», усилили мышление учащихся, логическое мышление и культуру работы с языком. По результатам статьи организация процесса усвоения сложных терминов на основе интерактивных методов является эффективным способом повышения речевой культуры учащихся.

Abstract

This article analyzes the process of mastering complex terms in the development of speech culture of primary school students. During the study, it was found that students are limited to memorizing complex words, but have difficulty actively using them in oral speech. Therefore, the article proposes innovative approaches developed on the basis of the "Find a Friend" and "Word Pyramid" methods. The results of the study show that these methods develop students' skills in expanding their vocabulary, understanding the meaning of words,

analyzing them, and using them independently in speech. In particular, the exercises conducted on the example of the word “andiz” strengthened students' thinking, logical thinking, and the culture of working with language. According to the results of the article, organizing the process of mastering complex terms based on interactive methods is an effective way to improve students' speech culture.

Kalit soʻzlar: murakkab atamalar, nutq madaniyati, boshlangʻich taʼlim, interfaol metod, “Doʻstingni top”, “Soʻz piramidasi”, oʻquvchi nutqi.

Ключевые слова: сложные термины, культура речи, начальное образование, интерактивный метод, «Найди друга», «Пирамида слов», речь учащихся.

Keywords: complex terms, speech culture, primary education, interactive method, "Find a Friend", "Word Pyramid", student speech.


KIRISH

Bugungi globallashuv zamonida jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamolotini belgilovchi asosiy omillardan biri nutq madaniyati hisoblanadi. Ayniqsa, yosh avlodning toʻgʻri, aniq va ravon nutq soʻzlashi, ilmiy-ijodiy faoliyatda erkin fikr bildirishi ularning intelluktual salohiyatini oshiradi hamda kelgusidagi kasbiy muvaffaqiyatlarini taʼminlaydi. Nutq madaniyatini yuksaltirishda murakkab atamalarni toʻgʻri va ongli oʻzlashtirish alohida ahamiyatga ega. Sababi ilmiy terminlar nafaqat maʼlum bir sohaning tushunchalarini ifodalaydi hamda oʻquvchilarning mustaqil fikrlash, mantiqiy xulosalar chiqarishiga xizmat qiladi. Boshlangʻich taʼlim davri bolalarning shaxsiy kamoloti va nutqiy salohiyatini shakllantiradigan eng asosiy boʻlgan davrdir. Bugungi kunda oʻquvchilar oʻquv jarayonida uchraydigan ilmiy va murakkab atamalarni toʻliq tushunib yetmasdan, ularni yodlab olishga intiladilar. Bu esa ularning mantiqiy tafakkuri, nutqiy salohiyatini va ilmiy-ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishiga toʻsqinlik qiladi. Nutq madaniyatining poydevori boʻlgan toʻgʻri talaffuz, soʻzlardan oʻrinli mazmunini anglagan holda foydalanish koʻnikmalari aynan boshlangʻich taʼlim davrida shakllantirilishi lozim. Tadqiqotimizning maqsadi boshlangʻich sinf oʻquvchilarida murakkab atamalarni oʻzlashtirish metodikalarini koʻrib chiqish, ular orqali nutq madaniyatini oshirish yoʻllarini aniqlashdan iborat. Natijalar oʻquvchilarning nafaqat oʻquv faoliyatlarida, balki kundalik muloqatda ham oʻz fikrlarini aniq, ravon va mazmunli ifodalashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR


Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida nutq madaniyatini rivojlantirish masalasi koʻplab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar diqqat markazida boʻlib kelmoqda. Yusuf Xos Hojib insonda uquv-idrok va bilim til, soʻz orqali aʼyon boʻlishini aytib, nutqning ravon boʻlishiga daʼvat etadi: - oʻquv va bilimning tilmochi, tarjimoni tildir. Kishiga roʻshnollik, yaxshilik va ezguliklar til tufayli keladi, buni yaxshi bilib olish kerak. Qut-izzatni ham, obroʻ-eʼtiborni ham kishi til orqali topadi. Hech qachon koʻp gapirma. Juda oz soʻzla. Tuman soʻz tugunini bitta soʻz bilan yozib yubor, yaʼni oz soʻzlarga koʻproq maʼno singdirish payida boʻlgin.[1] Yusuf Xos Hojib taʼkidlaganidek oz soʻzlarda koʻproq maʼno boʻlishi uchun murakkab atamalarni oʻrgatish jarayonida faqat ularning shakliy yodlanishiga emas, balki mazmunini anglash, amaliy faoliyatda qoʻllash va oʻquvchi nutqiga olib kirishga ahamiyat berish zarur. Rus faylasufi P.A. Florenskiy “Fanning mohiyati terminologiyani tuzish yoki aniqrogʻi joy-joyiga qoʻyishdan iborat... Har qanday fan terminlar tizimidir”.[2] Bu fikr shuni koʻrsatadiki, ilmiy tushunchalarsiz va aniq terminlarsiz hech bir fan mukammal rivojlanmaydi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarini murakkab atamalar bilan tanishtirish ham aslida ularni fanning asosiy tili bilan tanishtirish demakdir. Nutq

madaniyatining asosiy tarkibiy qismlari mavjud bo'lib ular quyidagilar: til boyligi va lug'at salohiyati, nutqning grammatik to'g'riligi, stilistik moslik, axloqiy (etik) me'yorlarga rioya qilish, logik izchillik va aniq fikrlash, tovush madaniyati. Til boyligi va lug'at salohiyati-inson qancha ko'p so'z bilsa, shuncha aniq va mazmunli fikr bildirishi mumkin. Lug'at boyligi nutqning aniqligini, ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi.[3] Nutq madaniyati nafaqat tilni bilish, balki insonning ichki madaniyati va ijtimoiy madaniyatini ham aks ettiradi. Yusuf Xos Hojib ta'kidlaganidek ilm va idrok tilda namoyon bo'ladi. Men o'z amaliyotim vaqtida quyidagi metodlardan foydalandim:



Tadqiqot davomida o'quvchilarning murakkab atamalarni o'zlashtirish jarayonini samarali tashkil etish maqsadida bir qator innovatsion metodlar sinovdan o'tkazildi. Ushbu metodlar boshlang'ich sinf o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lib, ularni faol fikrlashga, mustaqil izlanishlariga qaratilgan. **“Do'stingni top”** metodi. Bu metod o'quvchilarda muloqot madaniyatini, eslab qolish, tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiriliadi. Har bir o'quvchiga murakkab atama yozilgan kartochka tarqatiladi, boshqa o'quvchilar esa uning ma'nosini yoki izohini topishlari lozim bo'ladi. Masalan, biri “zalolat”, yana biri “omoch” so'zlarini oladilar, shundan so'ng ular ushbu atamalarning izohi berilgan o'z “do'stini” topishlari kerak. **“So'z piramidasi”** metodi. Bu metod murakkab atamani bosqichma-bosqich o'zlashtirishga asoslanadi: avval so'z yoziladi, keyin uning fanga aloqasi, ma'nosi, misoli va qo'llanilishi izohlanadi.

Masalan, andiz soʻzi misolida koʻramiz:



Ayniqsa, “Doʻstingni top” metodida oʻquvchilar soʻzni eshitish, tushunish, izohlash va nutqda qoʻllash jarayonlarini bir vaqtning oʻzida bajargani sababli, bu yondashuv nutq madaniyatini rivojlantirishda eng samarali metod sifatida koʻrishimiz mumkin

NATIJA VA MUHOKAMA

Tadqiqot davomida boshlangʻich sinf oʻquvchilari bilan olib borilgan amaliy mashgʻulotlar natijasida murakkab atamalarni oʻzlashtirish jarayonida “Doʻstingni top” va “Soʻz piramidasi” metodlaridan foydalanish oʻquvchilarning nutq madaniyatini oshirishda muhim vazifa bajarishi aniqlandi. Bunda 3-sinf oʻquvchilarining dars jarayonidagi ishtiroki, soʻz boyligi va muloqot madaniyati tahlil qilindi. Dastlab ularning koʻpchiligi murakkab atamalarni yodlash orqali eslab qolgan boʻlsalar-da, ularni ogʻzaki nutqda mustaqil ishlatishda qiynalish holatlari kuzatildi. Shu sababli interfaol yondashuv asosida “Doʻstingni top” va “Soʻz piramidasi” metodlari darslarda tashkil etildi. **“Doʻstingni top” metodi natijalari:** Bu metod oʻquvchilarni tinglash va tushunishga oʻrgatdi. Har bir oʻquvchiga murakkab atama yozilgan kartochka berilib, unga mos maʼno izohlari bilan “doʻstini topish” topshirigʻi berildi. Dars jarayonida oʻquvchilar oʻzaro fikr almashib, atamalarining maʼnosini mustaqil izohlashga, oʻz nutqida toʻgʻri ishlatishga oʻrgandilar. Amaliy kuzatuvlar natijasida oʻquvchilarning 80 foizi murakkab soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilish va izohlash koʻnikmasiga ega boʻldi, 70 foizi esa yangi atamalardan ogʻzaki nutqda mustaqil foydalanishni oʻzlashtirdi. “Doʻstingni top” metodi oʻquvchilarda muloqot madaniyati, fikrni izchil bayon qilish va soʻzlar oʻrtasidagi mantiqiy

bog'lanishni topish qobiliyatini rivojlantirdi. **“So‘z piramidasi” metodi natijalari:** “So‘z piramidasi” metodi murakkab atamalarni bosqichma-bosqich o‘rganishga yo‘naltirilgan. Tadqiqot jarayonida bu metod “andiz” so‘zi misolida qo‘llanildi. O‘quvchilar so‘zning o‘zi, uning fan sohasiga aloqasi, ma‘nosi, misolda qo‘llanilishi va o‘z fikrida ishlatish bosqichlarini ketma-ket bajarish orqali so‘zning ichki mazmunini chuqur tahlil qildilar. Masalan, o‘quvchilar “andiz” so‘zini faqat o‘simlik sifatida emas, balki tabiat, sog‘liq va inson hayoti bilan bog‘liq tushuncha sifatida anglay boshladilar. Natijada o‘quvchilarning 75 foizi so‘zning ma‘nosini to‘g‘ri izohlab bera oldi, 65 foizi esa bu so‘zni o‘z nutqida mustaqil ishlatdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, metodni nechta bo‘lishidan qat‘iy nazar maqsadga yo‘naltirilgan holda mavzuga bog‘liq holda qo‘llashning o‘zi ham o‘quvchilarning nutqiy salohiyatini sezilarli darajada rivojlantiradi. Ushbu metodlar o‘quvchilarda: murakkab so‘zlarni tushunish va izohlash qobiliyatini kuchaytirdi; og‘zaki nutqda mustaqil fikr bildirish ko‘nikmasini shakllantirdi; so‘z boyligini kengaytirish va nutq madaniyatini oshirishga xizmat qildi. Sinov natijalariga ko‘ra, o‘quvchilarning 78 foizi terminlarni to‘g‘ri izohlash, 72 foizi esa nutqda ularni to‘g‘ri qo‘llash malakasiga ega bo‘ldi. Bu natijalar shuni isbotladiki, murakkab atamalarni o‘zlashtirish jarayonida faol muloqot, tahlil va bosqichli o‘rganish asosiy natija omillardandir.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, murakkab atamalarni o‘zlashtirish jarayoni o‘quvchilarning nutq madaniyati, tafakkuri va bilish faoliyatini shakllantiruvchi omil sifatida katta ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf davri o‘quvchilar uchun til va fikrlashning asoslari qo‘yiladigan davr bo‘lib, aynan shu jarayonda o‘quvchi har bir so‘zni nafaqat yodlaydi, balki uni anglaydi, tahlil qiladi va o‘z nutqida faol qo‘llashni o‘rganadi. Murakkab atamalar ustida ishlash orqali o‘quvchi fikrning aniqligi, mantiqiyliigi va izchilligini o‘zlashtiradi. Shu ma‘noda, “Do‘stingni top” va “So‘z piramidasi” metodlari o‘quvchilarda til va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlikni shakllantiruvchi eng samarali vositalardan biri sifatida o‘zini oqladi. Tadqiqot davomida “Do‘stingni top” metodi o‘quvchilarni faol muloqotga, so‘zlarni tushunish va izohlashga o‘rgatdi, natijada ularning so‘z boyligi va nutq faolligi oshdi. “So‘z piramidasi” metodi esa o‘quvchilarda so‘zning fan sohasiga aloqasi, ma‘nosi va hayotiy qo‘llanishini aniqlash ko‘nikmasini rivojlantirdi. Ayniqsa, “andiz” so‘zi misolida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning tahliliy fikrlash darajasini oshirganini amaliy natijalar tasdiqladi. Shunday qilib, murakkab atamalarni o‘zlashtirish jarayonini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali o‘quvchilarda fikrni ifodalash madaniyati, og‘zaki va yozma nutqdagi aniqlik, tildan ongli foydalanish ko‘nikmalari shakllanadi. Bu esa nafaqat til ta‘limi samaradorligini, balki o‘quvchining shaxsiy nutq madaniyatini ham rivojlantiradi. Takliflar: Boshlang‘ich ta‘lim tizimida murakkab atamalarni o‘rgatish bo‘yicha metodik yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqish, ularni o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga moslashtirish zarur. “Do‘stingni top” metodini muntazam qo‘llash orqali o‘quvchilarda so‘z bilan ishlash, tinglash va tushunish madaniyatini shakllantirish. “So‘z piramidasi” metodini barcha fan darslarida, ayniqsa, o‘qish, ona tili, tabiatshunoslik va texnologiya fanlarida integrativ tarzda tatbiq etish. Har bir darsda o‘quvchilarga murakkab so‘zlarni tahlil qilish, izohlash va qo‘llashga oid qisqa topshiriqlar berish orqali nutqiy faollikni oshirish. O‘qituvchilar uchun murakkab atamalarni o‘rgatish metodikasi bo‘yicha ilg‘or tajribalarni ommalashtirish. Murakkab atamalarni o‘zlashtirish jarayonida o‘yinli va ijodiy yondashuvlarni kengaytirish, bu o‘quvchilarda tabiiy ravishda so‘z boyligini oshiradi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, murakkab atamalarni o‘zlashtirishni faqat

soʻz yodlash sifatida emas, balki fikrlash, tushunish va nutq madaniyatini shakllantiruvchi jarayon sifatida tashkil etish, bugungi taʼlimning eng muhim maqsadlaridan biridir. Boshlangʻich sinfda “Doʻstingni top” va “Soʻz piramidasi” metodlarini uygʻun qoʻllash orqali oʻquvchi soʻzning ichki maʼnosini anglaydigan, fikrini ravon va asosli bayon ifodalay oladigan, nutqi madaniyatli shaxs sifatida shakllanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. <https://cyberleninka.ru> Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi X.K Muhammadiyeva, G. Ergasheva CENTRAL ASIAN RESEARCH JOURNAL FOR INTERDISCIPLINARY STUDIES (CARJIS) Google scholar 3-b. [1-5]
2. <https://namdu.uz> Obidjon Husanxoʻjayev Pedagogik terminlarning semantik-struktur va lingvopoetik tadqiqi Namangan-2024 7-b [3-119]
3. <https://in-academy.uz> Ergashev Jamoliddin Maxmayusufovich, Abduraxmonova Gulsanam Ravshan qizi Boshlangʻich taʼlim oʻquvchilarida nutq madaniyatining shakllanishi “Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya 60-b [59-63]
4. M.E.Toirova. Oʻqish savodxonligi 3-sinf I qism -Toshkent “Novda Edutainment”, 2023 80-b
5. U.B.Aydarova, N.K.Azizova. Oʻqish savodxonligi 3-sinf IVqism -Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023.-80 b
6. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida Gʻulomova, Sharofat Yoʻldosheva, Sharofjon Sariyev. Ona tili oʻqitish metodikasi. Toshkent-2022